Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 5 (2026) Published May 31, 2026

PROBLEM OF SUPPLY WITH RESOURCES

Bukhara State Pedagogical Institute, 3rd-year student

Ibotova Durdona Uzoqboy qizi

Annotation

Natural resources are all natural objects that exist in nature and are not created by humans, necessary for human life and economic activity. In this article, the author reflects on natural resources. Also, natural resources play an important role in the development of the country's economy.

Key words

natural resources, forest fund, protected areas, water resources, underground and surface water, fauna resources

RESURSLAR BILAN TA’MINLANISH MUAMMOSI

Buxoro davlat pedagogika instituti, 3-kurs talabasi

Ibotova Durdona Uzoqboy qizi

Annotatsiya: Tabiiy resusrslar tabiatda mavjud bo’lgan va inson tomonidan yaratilmaydigan insonning hayoti, xo’jalik faoliyati uchun zarur bo’lgan barcha tabiiy jismlar hisoblanadi. Muallif tomonidan ushbu maqolada tabiiy resusrlar bo’yicha fikr mulohaza yuritilgan. Shuningdek tabiiy resusrslar mamlakatning iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o’ynaydi.

Kalit so’zlar: tabiiy resurslar, o’rmon fondi, muhofaza qilinadigan hududlar, suv resurslari, yer osti va yer usti suvlari, fauna resurslari

ПРОБЛЕМА ПОСТАВКИ РЕСУРСОВ

Бухарский государственный педагогический институт, студент 3 курса

Иботова Дурдона Узокбой кизи

Аннотация: Природные ресурсы — это все природные объекты, существующие в природе и не созданные человеком, необходимые для жизни и экономической деятельности человека. В данной статье автор рассматривает природные ресурсы. Природные ресурсы также играют важную роль в развитии экономики страны.

Ключевые слова: природные ресурсы, лесной фонд, охраняемые территории, водные ресурсы, подземные и поверхностные воды, фаунистические ресурсы

Jamiyat hayotini yashash vositasi bo‘lgan turli tabiiy resurslarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. «Resurs» so‘zi - fransuz tilidan olingan bo‘lib, «yashash vositasi» degan ma’noni bildiradi. Tabiiy resurs deb - tabiatda mavjud bo‘lgan, insonlar tomonidan yaratilmaydigan, insonning hayoti, xo‘jalik faoliyati uchun zarur bo‘lgan barcha tabiiy jismlar, sharoitlar va jarayonlarga aytiladi. Mamlakatning tabiiy resurslarga boyligi uning iqtisodini rivojlantirishning muhim sharoitlaridan biridir, aksincha zahiralarning kamligi yoki umuman yo‘qligi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish imkoniyatini bermaydi. Lekin bu qonuniyatni har doim ham to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Dunyoda shunday mamlakatlar borki, ular joylashgan hududda mineral resurslar umuman yo‘q yoki bo‘lsa ham juda oz miqdorda, shunga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiradi. Masalan, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqalar. Bu mamlakatlarda ishchilar, muhandislar va texnik xodimlarning yuqori malakaga egaligi, fan-texnika tarraqqiyoti uchun yaratilgan sharoitlar sanoatni rivojlatirishdaeng muhim omillardan biri deb hisoblanadi. Tabiiy resurslar tasnifi uchta belgi asosida qabul qilingan: paydo bo‘lish manbasi asosida, ishlab chiqarish bo‘yicha va qayta tiklanish darajasi bo‘yicha. Paydo bo‘lish bo‘yicha tabiiy resurslar biologik, mineral va enegretik resurslarga bo‘linadi. Biologik resurslar - biosferaning muhitini tashkil qiluvchi hamma jonvor komponentlari: produtsentlar, konsumentlar va redutsentlardir. Ular inson tomonidan moddiy va ma`naviy qulayliklarni olish manbasidir. Mineral xom ashyo rudali (undan metallar ajratib olinadi) va rudamasli (metalmas komponentlar ajratib olinsa yoki qurilish material shaklida ishlatilsa) bo‘lishi mumkin. Agarda mineral resurslar yoqilg‘i shaklida ishlatilsa (ko‘mir, neft gaz, torf, yog‘och, atom energiyasi) ular yoqilg‘i-energetik resurslari turiga kiradilar. Energetik resurslar - quyosh, koinot, atom-energetik, termo va boshqa energiya manbalarini majmuasidir. Ishlab chiqarishda ishlatilishi bo‘yicha tabiiy resurslar quyidagilarga bo‘linadi: - yer fondi - dunyo va mamlakat miqyosidagi hamma yerlar, vazifalari bo‘yicha quyidagi toifalarga bo‘linadi: qishloq xo‘jaligidagi yerlar,

yashash punktlari, noqishloq xo‘jaligi yerlari (sanoat, transport, qazib olish sanoatida va h.k).

Dunyo yer fondi 13,4 mlrd.gani tashkil kiladi; - o‘rmon fondi - alohida muhofaza qilinadigan hududlarni tashkil qilish uchun o‘rmonlar o‘sadigan yoki o‘sishi mumkin bo‘lgan sayyoramizning yer fondining bir qismi; - suv resurslari - xo‘jalikda xilma xil maqsadlarda ishlatiladigan yer osti va yer usti suvlari (alohida o‘rinni chuchuk suv zahiralari egallaydi); - gidroenergetik resurslar - daryo, dengizning pasayish-ko‘tarilish faoliyati natijasida hosil bolgan resurslar; - fauna resurslari - inson ekologik muvozanatni buzmagan holda suv, o‘rmon, cho‘llardagi tirik mavjudotlarni ishlatishi mumkin bo‘lgan resurslar; - qazilma boyliklar (rudali va rudamasli, yoqilgi-energetik resurslari)- xo‘jalikda ishlatilishi mumkin bo‘lgan yer qobig‘idagi minerallarning tabiiy yig‘indisi. Atrof-muhitni asrash nuqtai nazaridan resurslarning uchinchi, ya'ni - qayta tiklanish klassifikatsiyasi muhimdir. Tabiiy resurslar tasnifi Tabiiy resurslar xarakteristikasini bilish ulardan oqilona foydalanishda muhim ahamiyatga ega. O‘simlik va hayvonlarni faqatgina ma’lum populyatsiyasi saqlanib qolgan holdagina qayta tiklash mumkin. Yer osti qazilmalarining tiklanmasligini hisobga olib, ulardan oqilona foydalanish katta ahamiyatga ega. Ularni qayta tiklab bo‘lmaydi. Chunki yer osti boyliklari million yillarda, ya’ni geologik davrlardagina, juda sekin - astalik bilan tiklanadi. Shuning uchun ularni qazib olishda, tashish va ishlatishda isrofgarchilikga, atrof - muhitning ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Dunyo okeani resurslari, atmosfera havosi, Antarktida tabiiy resurslari, kosmik fazo, ko‘chib yuruvchi hayvonlar umumjahon resurslari hisoblandi. Ulardan foydalanish, muhofaza qilishfaqatgina xalqaro kelishuvlar asosida, turli mamlakatlar ishtirokidagina muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Tabiiy resurslaridan foydalanish holati va istiqbollari Jamiyatning ma'lum rivojlanish davri davomida tabiiy resurslardan foydalanishda ularni real va potentsial resurslarga ajratiladi. Jamiyatning ayni paytdagi rivojlanish bosqichida qidirib topilgan, zahiralari aniqlangan va jamiyat tomonidan faol ishlatilayotgan resurslarga aytildi. Potentsial tabiiy resurslar deb - jamiyat tarraqqiyotining hozirgi boqichida qidirib topilgan, qisman va miqdoran aniqlangan resurslarga aytiladi. Ulardan

foydalanish uchun texnik vositalar yetarli bo‘lmagan, xom ashyolarni qayta ishlash texnologiyalari ham ishlab chiqilmagan yoki umuman yaratilmagan bo‘lishi mumkin.

Yer sayyorasining potentsial yer resurslariga cho‘l, tog‘liklar, botqoqliklar, sho‘rlangan hududlar, doimiy muzliklar ham kiradi. Potentsial resurslariga bir qator kosmik resurslar - quyosh energiyasi, dengiz suvlarning ko‘tarilishi va qaytishi, shamol energiyasi va boshqalar ham kiradi. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish deb, ulardan tabiatni muhofaza qilish qoidalariga to‘la rioya qilgan holda jamiyatga faqat hozirgi kunda emas, balki tasavvur qilish mumkin bo‘lgan uzoq kelajakda ham eng yuqori samara olishni ta’minlash nuqtai nazaridan foydalanishga aytiladi. Tabiiy resurslarni muhofaza qilish deb - ular hossalarining buzilishi va ifloslanishi, behuda sarflanishi, kamayib ketishini bartaraf qilishga yo‘naltirilgan huquqiy, tashkiliy, texnik, ijtimoiy va iqtisodiy tadbirlar majmuasiga aytiladi. Hozirgi kunda tabiiy resurslardan foydalanishning yangi usullari keng qo‘llanib kelinmoqda: - tabiiy resurslardan qazib olish jarayonida zamonaviy, tejamkor va atrof muhitga imkoniyati bor darajada bezarar texnologiyalarning qo‘llanishi. Masalan, ko‘mirni boshqa qazilma boyliklarni qazib olishda ochiq usulga qaraganda ko‘proq yopiq usullardan foydalanish; - qazib olingan qayta tiklanmaydigan resurslardan kompleks ravishda foydalanib, chiqindiga chiqarmasdan ishlatilish. Qazib olingan rudadan nafaqat oltin yoki qimmatbaho metallar ajratib olib rudani oqova suvlarga yuvib yu,borish balki yangi texnologiyalarni joriy etib rudadan to‘liq foydalanib tarkibidagi boshqa metallarni ham ajratib olish. Neft mahsulotlarini qayta ishlash jarayonlarida qo‘llanadigan texnologiyaga bog‘langan holatda neftdan 60 % dan 85-90% gacha benzin olish mumkin. - tugaydigan resurslardan tugamaydigan resurslarga o‘tish.

Kelajakda quyosh radiatsiyasini quyosh energiyasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri aylantirishning nisbatan arzon usullari yaratilsa bir qator mamlakatlarning isitish tizimlari uchun sarf etiladigan energiyaning 50 foizini qoplashnishi mumkinligi hisoblab chiqilgan; - qayta ishlash texnologiyalarini keng qo‘llash va chiqindilarni boshqa ishlab chiqarishlarda xom ashyo shaklida ishlatish. AQSh tajribasi shuni ko‘rsatdiki, konserva bankalarni qayta ishlash jarayonida alyuminiy olish boksitlardan (tabiiy konlardan) ajratib olishga nisbatan 10 barobararzonroq ekan. Shishalarni ham qayta ishlash jarayoni

uni tabiiy resurslardan ajratib va qayta ishlash jarayoniga nisbatan ancha arzon ekan. Bundan tashqari, yuqorida misol qilib keltirilgan jarayonlarda suv sarfi tejaladi, atrof muhitga, ayniqsa atmosfera havosiga salbiy ta'siri kamayadi. Makalaturadan qog‘oz ishlab chiqarish jarayonida daraxtlardan olish jarayoniga nisbatan atmosfera havosining ifloslanishi 73%, suvning ifloslanishi - 25%, qattiq chiqindilarning hajmi 39% ga kamayadi. Bundan tashqari, makalaturadan 1 tonna qog‘ozni ishlab chiqarilishida 4.7-5,6 m3 hajmdagi daraxtlar va 165-200 m3 suv saqlab qolinadi yoki tejaladi. - chiqindilarni yoqilg‘i sifatida ishlatish va h.k. 35 3.4. Energetik resurslar va ulardan foydalanish Elektr stansiyalar va elektr korxonalarida elektr energiyasi ishlab chiqarish murakkab ekologik muammolar bilan bog‘liqdir. Energiyaning zarurligi - insonning asosiy ehtiyojlaridan biridir. Energiya nafaqat hozirgi zamondagi murakkab inson jamoasining normal hayotiy faoliyati uchun, balki har bir insonning yashashi uchun ham juda zarurdir. Hozirgi vaqtda elektr energiyasi asosan gidroelektr stansiyalar, issiqlik va atom elektr stansiyalarda olinadi. Gidroelektrstansiyalar yuzaki qaralganda tabiatga zarar keltirmaydigan ekologik toza korxona hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning salbiy oqibatlari sharoitida shakllantirishga ob’yektiv ehtiyoj paydo bo‘lmoqda. resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkonini beradi. Barqaror rivojlanishning mazmuni hozirgi avlod o‘z iqtisodiy faoliyatini shunday tashkil etishi zarurki, keyingi avlodlar ulardan kam bo‘lmagan iqtisodiy imkoniyatlar va turmush farovonligiga ega bo‘lishlari lozimligida namoyon bo‘ladi. Hozirgi vaqtda inson farovonligini oshirish, resurslarni saqlash va kelajak avlodlarni jiddiy ekologik xavf-xatarlarga duchor qilmaslikni ta’minlaydigan iqtisodiy modelga o‘tish zarurati dolzarbdir. Biz iqtisodiy farovonlikka va kelajak avlodni iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga, ekologik xavflarga qo‘ymaslikka faqatgina birdamlikda erishishimiz mumkin.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. K. F. Abdullayev, N. J. Bobomurodova, K. Kobiljonov. Yuqori ma'naviyat ekologik madaniyatning asosidir. Ilmiy makon: dolzarb masalalar, yutuqlar va innovatsiyalar, 5-8 b.

2. K. F. Abdullayev, N. J. Bobomurodova. Jismoniy tarbiya va sport o'smirlarda yomon odatlarning oldini olishning samarali vositasi. Inson va tabiat, 195-198 b.

3. K. F. Abdullayev, N. J. Bobomurodova. Jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri muammosiga. Ilmiy maktablar. XXI asr fan va madaniyatidagi yoshlar, 255-256 b.

4. N. J. Bobomurodova ekologik madaniyat BBCning umuminsoniy qiymati sifatida 74, 188.

5. K. F. Abdullayev, N. J. Bobomurodova. buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning munajjimlik haqidagi qarashlari. Rossiya-O'zbekiston. Xalqaro ta'lim va ijtimoiy-madaniy.

6. Iqtisodiyot nazariyasi — T.: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi nashriyoti, 2021.

7. Makroiqtisodiyot — T.: “Fan va texnologiya”, 2022.

8. https://www.worldbank.org/ext/en/home?utm_source

9. https://stat.uz/uz/?utm_source